

## **Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda multimedia vositalaridan foydalanish**

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti*

*Maktabgacha ta'lim fakulteti 302-guruh talabasi*

***Abduhamidova Nigora***

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya berish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning samarali usullarini va amaliyotda qo'llash yo'nalishlari yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** Multimedia, texnik vositalar, axborot texnologiyalari, kompyuter, ta'lim, shakl, mazmun, vosita, mashg'ulot.

**Abstract:** The article describes effective methods of using multimedia in the educational process in preschool educational institutions and directions for their practical application.

**Key words:** multimedia, technical means, information technology, computer, teaching, form, content, means.

**Аннотация:** В статье описаны эффективные методы использования мультимедиа в образовательном процессе в дошкольных образовательный учреждениях и направления их практического применения.

**Ключевые слова:** мультимедия, технические средства, информационные технологии, компьютер, обучение, форма, содержания, средство.

Mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy barkamol va intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni tarbiyalash. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim

tashkiloti turlarini ko'paytirish, xususiy ta'lim tashkilotlariga imtiyozlar berish hamda maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalar qamrovini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan kompyuter texnologiyalari asri bo'lган XXI asrda Maktabgacha ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim jarayonida zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalaridan foydalanishning noan'anaviy usullarini qo'llash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 6noyabrdagi «O'zbekiston yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari» to'g'risida'gi PF6108-son farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida 2022-yil 1-yanvarga qadar maktabgacha ta'lim tizimida multimedia vositalaridan foydalanishning samarali usullari, zamonaviy o'qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayonlariga joriy etilishi belgilab qo'yildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish hozirgi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Hozirgi davrda multimedia atamasi ko'p qirrali bo'lib, turli xil tushunchalarni ifodalashda tatbiq etib kelinmoqda.

Multimedia - bir vaqtning o'zida turli ko'rinishdagi axborotlardan: matn, grafika, tovush va boshqalardan foydalanishni ko'zda tutadigan yangi pedagogik texnologiyadir. Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyasidir. Multimedia kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvirlami va turli xil animatsiyalarni mujassamlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy axborotlar texnologiyasidur. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ta'lim-tarbiyasi shakllanishida axborot texnologiyalari ya'ni multimedia vositalaridan foydalanish uni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida samarali tarzda qo'llash hozirgi kunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya berish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning samarali usullaridan tashkilotdagi har bir hodim foydalanishi ta'lim samaradorligini

yanada oshiradi. Biz quyida multimedia vositalaridan samarali foydalanishning 3 ta asosiy usullarini keltirib o'tamiz.

**1-usul. Eshittirish usuli** - ya'ni ta'lim-tarbiya berish jarayonida bolalarga mikrafon, radio va turli xil o'lchamdagи овоз kuchaytirgichlar orqali she'rlar, ertaklar va qo'shiqlarni eshittirishimiz mumkin. Lekin bu usulda bolalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari kam foizlarga to'g'ri keladi.

**2-usul. Ko'rib-eshitish usuli.** Bu usulda ta'lim-tarbiya berish jarayonida bolalarga taqdim etiladigan ma'lumotlar animatsiyali ma'lumot ko'rinishida televizor, kompyuter yoki turli xildagi gadgetlar orqali ko'rsatib beriladi. Animatsiyali ma'lumotlar bolalar diqqatini jalb qilish xususiyatiga ega. Multimediali ta'lim-tarbiya bir vaqtning o'zida ham ko'rish, ham eshitish orqali bilim olish uchun samarali ekanligi hayotiy tajribadalarda allaqachon isbotlangan. Psixologiyada ham bir vaqtning o'zida bolaning ham ko'rish, ham eshitish organlaridan foydalanish orqali bilim berish, ular tomonidan materiallarni o'zlashtirishning yuqori bo'lishi uchun kafolatli ekanligi ta'kidlanadi.

### **3-usul. Ko'rish-eshitish-bajarish usuli.**

Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar jarayonida bolalarga animatsion ma'lumotlarni ko'rsatish, ovozini baland qilib eshittirish hamda ushbu ma'lumotlarni bolalar uchun qiziq bo'lgan tana xarakatlariga moslashtirib takrorlansa, bolalar xotirasidan mustahkam joy egallaydi. Psixologik jihatdan eshitgan, ko'rgan narsalarini ma'lum bir xarakatlarga bog'lab o'rgatilsa, bolalar o'sha harakatni ko'rishi bilan ko'rgan va eshitgan axborotlari yodlariga tushadi. Shu bilan birgalikda, o'rganilayotgan o'quv materialiga bo'lgan qiziqishlarini ham orttiradi. Bu usul eng samarali usul hisoblanadi. Yuqorida keltirib o'tilgan usullardan tashqari yana qo'shimcha qiziqarli usullar ham mavjud. Masalan: multimediali kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning qiziquvchanlik xususiyatini oshiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimediali ma'lumotlardan foydalanish jarayonida bolalar bilimini takrorlash, mustahkamlash va baholash uchun kompyuter xotirasiga kiritilga test savollari, rasmlar, o'yinlar hamda mashqlar orqali amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya berish jarayonida qo'shimcha multimedia vositalari: kompakt disklar, turli xil taqdimotlar, slaydlar va boshqalar talab etiladi. Multimedia vositalaridagi ta'lim-tarbiya materiallari dinamik xarakatga ega bo'lib, ular turli xil animatsiyalar bilan berilgan bo'ladi. Hozirgi kunda turli xil mutimedia vositalarini ishlab chiqish va ularni ta'limtarbiya jarayoniga tatbiq etish jadal rivojlanayapti. Lekin maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilmagani uchun tarbiyachi-pedagoglar multimedia vositalarini amaliyotda qo'llash jarayonida turli xil qiyinchiliklarga uchrashmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'limtarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat.Uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim sohasiga davlatimiz rahbari tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, barkamol avlodni tarbiyalashda yoshlarni intelektual salohiyatini ro'yobga chiqarish va ularni har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish - davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

### **XULLOSA**

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda multimedia vositalaridan foydalanish hozirgi kunda glaballahib kelmoqda.Hozirgi kunda multimedia vositalaridan ko'rgazmali vositalar,rasm va videolar ko'rish uchun bolalarga qo'llash mumkin bo'ladi.Multimedia vositalaridan foydalanish Pedagog-tarbiyachilar uchun ancha qulay hisoblanadi .Bolalarga tabiat haqidagi bilimlarini oshirishda multimedia vositalarini qo'llash va faoliyatga olib kirish bolalarga ham qulaylik hissini bildirgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Adilova.S.Multimedia vositalari va ularni ta‘lim jarayonida qo’llash.Pedagogik ta‘lim.T.: 2011.
2. Sodiqova.Sh.Maktabgacha pedagogika.T.: ‘O’qituvchi’, 2008-173-bet.
3. Begmatov.N.X. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyati.Qarshi: Nasaf. 2011.-257-b.
4. Azlarov.T.Y. Kompyuter savodining tabaqlashgan talablari. T.: 1998.
5. Mexmonov.D. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida boshlang’ich kompyuter savodxonligi. T.: 2010
6. Lex.uz sayti.